

KICHIK YOSHDAGI BOLALARDA MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Voxidova Xayitxon Qosimovna

Annotatsiya: Ushbu maqola kichik yoshdagidan bolalarda motivatsiyani shakllantirishning samarali usullarini o’rganishga bag’ishlangan. Bolalarning o’ziga xos psixologik xususiyatlari inobatga olingan holda, o’yinlar, rag’batlantirish, muvaffaqiyatga yo’naltirish, qiziqishni uyg’otish va ijobjiy muhit yaratish kabi usullarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari bolalarda motivatsiyani rivojlantirish orqali ularning o’quv faoliyati, ijodiy qobiliyatları va shaxsiy rivojlanishini yaxshilash mumkinligini ko’rsatadi.

Kalit so’z: Motivatsiya, kichik yosh, bolalar, o’yin, rag’batlantirish, muvaffaqiyat, qiziqish, ijobjiy muhit, o’qitish, rivojlanish, ta’lim, pedagogika, psixologiya, faoliyat, maqsad.

Kichik mакtab yoshi inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biridir. Aynan shu davrda bolalarning shaxsiy xususiyatlari, bilim olishga bo’lgan qiziqishlari va o’quv motivlari shakllanadi. Kichik mакtab yoshdagidi bolalar uchun ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki ularda ijtimoiy tajriba, o’z-o’zini anglash va o’z-o’zini rivojlantirish ko’nikmalarini rivojlantirish vositasi hamdir. Mativatsiya nima degan savolga javob beramiz.

Motivatsiya - bu insonni faoliyatga undovchi, uning maqsadga erishish yo'lida harakat qilishiga turtki beruvchi muhim omil. Kichik yoshdagidi bolalarda motivatsiyani shakllantirish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor yaratadi. Bola qanchalik erta o’z qiziqishlarini aniqlasa va ularga erishishga intilsa, uning shaxs sifatida rivojlanishi shunchalik muvaffaqiyatli bo’ladi. Shu bois, ota-onalar, tarbiyachilar va pedagoglar bolalarda motivatsiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur

Kichik yoshdagidi bolalarda motivatsiyani shakllantirish usullari:

O’yinlar orqali o’qitish O’yin - bu bolalar uchun eng tabiiy va qiziqarli faoliyat turi. O’yinlar orqali o’qitish bolalarda o’rganishga bo’lgan qiziqishni uyg’otadi, ularning diqqatini jalg qiladi va o’quv materialini osonroq o’zlashtirishga yordam beradi. Bolalarni har qanday muvaffaqiyati uchun rag’batlantirish ularning o’ziga bo’lgan ishonchini oshiradi va keyingi harakatlariga turtki beradi. Rag’batlantirish so’z bilan maqtash, kichik sovg’alar berish yoki bolaning sevimli mashg’uloti bilan shug’ullanish imkoniyatini yaratish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bolalarni har doim muvaffaqiyatga yo’naltirish, ularning kuchli tomonlarini ta’kidlash va kamchiliklarini bartaraf etishga yordam berish zarur. Bolalarga o’z maqsadlariga erishish uchun qadam-baqadam harakat qilishni o’rgatish va ularni qo’llab-quvvatlash muhim.

Qiziqishni uyg’otish Bolalarda yangi narsalarga qiziqishni uyg’otish, ularni turli xil faoliyat turlariga jalg qilish va ularning savollariga javob berish orqali motivatsiyani

rivojlantirish mumkin. Bolalarga o’z qiziqishlarini aniqlash va ularga erishish yo'lida harakat qilishga yordam berish muhim. Bolalar uchun ijobiy muhit yaratish, ularni qo’llab-quvvatlash, ularga ishonish va ularning fikrlarini hurmat qilish orqali motivatsiyani oshirish mumkin. Bolalar o’zlarini xavfsiz va erkin his qiladigan muhitda o’rganishga va rivojlanishga ko’proq tayyor bo’ladilar. Bolalar o’z ota-onalari, tarbiyachilari va atrofidagi boshqa odamlarning xatti-harakatlariga taqlid qilishadi. Shuning uchun, ota-onalar va tarbiyachilar o’zlarining motivatsiyasi, qiziqishlari va maqsadlariga erishishga intilishi orqali bolalarga namuna ko’rsatishlari zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаева Н.Р. Bolalarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning psixologik asoslari. — Toshkent: Fan, 2021.
2. Vygotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
3. Hasanboeva M.Q. Kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
4. Сухомлинский V.A. Yurakdan yurakka ta’lim. — Toshkent: Ma’naviyat, 2018.